



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA AUDIOVIZUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Maxambetova Jayna Kenesbay qizi**

*Nukus shahri 27-sonli umumta'lim maktabi Informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida informatika fanini o'qitishda audiovizual texnologiyalardan foydalanish, audiovizual texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi va ta'lim resurslarini yaratishdagi ahamiyati, ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, o'quvchilarning faolligini oshirishda foydalanish masalalari tahlil qilingan bo'lib, fikr va mulohazalar ilmiy asoslab berilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** audiovizual texnologiya, axborot resurslari, veb-loyihalar, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida o'qitishning turli xil AVVlaridan keng foydalanilmoqda. Bu axborotni qabul qilishning o'ziga xosligi bilan bog'liq. An'anaviy o'qitishdagi dars jarayonida pedagog asosan so'z belgilaridan foydalanadi. Bilim oluvchi tomonidan esa bu eshitilgan axborotlar uning tushunchalari bo'yicha tasavvurida shakllanadi. Undagi ma'lumotlarning cheklanganligi uning tasavvuri individual xarakterga ega ekanligi, ayrim hollarda esa aniq bo'lmasligiga olib keladi. Audiovizual texnologiyalar esa informatika darslarida pedagog yetkazmoqchi bo'lgan tasavvurni ta'lim oluvchidagi mavjud ma'lumotlar bilan uyg'un holda unda shakllantirish imkonini beradi.

Audiovizual vositalar – bu audio, video, elektron o'quv qo'llanmalarining tipologiyasi, o'quv videoyozuvlar tipologiyasi, audio, video, elektron resurslar banki, audio, video, elektron o'quv qo'llanmalar yaratish va ulardan samarali foydalanish tamoyillaridir [1]. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida bakalavriat ta'lim dasturlarining o'zlashtirilishida belgilangan umumiy talablarda o'quv jarayonining mashg'ulotlarini tashkil etishda faol va interfaol (kompyuter simulyatorlari, ishbilarmonlik o'yini, muayyan vaziyatlarni ko'rib chiqish va h.k.) shakllarini o'tkazishni, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida auditoriyadan tashqari mashg'ulot bilan birgalikda jahon pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning samarali strategiyalari va uslublarini keng qo'llashni nazarda tutadi.

Audiovizual taqdim qilingan material pedagog tomonidan so'zlar orqali berilgan materialga nisbatan boshqacha qabul qilinadi. Bu yerda teletasvirlarni qabul qilishning psixologik o'ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga nutq «ustunligi», «ovoz-ko'ruv» sintezi kabilar kiradi. O'quv maqsadlarida ishlatiladigan teletasvirlarni qabul qilishda nutq «ustunligi»ni avvalambor nutqning



aniqligiga xizmat qiluvchi nutq ta'sirining muhim kanali, deb tushunish mumkin. Shunga qaramasdan, vizual vositalarni informatika dars jarayonlarida o'quvchiga ta'sir qiluvchi qo'shimcha kanal sifatida qo'llash televizion nutqning hali ochilmagan zaxiralarini izlashni talab qiladi.

Ixtiyoriy jarayon va hodisalarni chuqur o'rganishda ularni komp'yuter va audiovizual apparatlar asosidagi qurilmalar va texnologiyalar majmuasidan iborat zamonaviy audiovizual vositalar yordamida modellashtirish imkoni yuzaga keldi.

Videoproektorlar, tarmoq texnologiyalarining paydo bo'lishi ta'limda komp'yuterlar rolini oshirib, bir vaqtning o'zida bir nechta auditoriyada bitta pedagog tomonidan ta'limni tashkil etish imkoniyatini yaratdi.

Audiovizual texnologiyalar turlicha ta'riflanishiga qaramasdan, uning asosida audiovizual vositalar (AVV) yotadi [2].

Audiovizual texnologiyalardan ta'limning turli bosqichlarida, jumladan, ma'ruzali ta'limni tashkil qilish, mustaqil ta'limni tashkil qilish, amaliy va tajriba jarayoni bosqichini tashkil qilishda ham qo'llanish mumkin.

O'qitishning audiovizual vositalarining didaktik o'ziga xosligi:

- yuqori darajadagi axborot mazmuniga egaligi;
- o'quv axborotlarini taqdim qilishning samarali tashkil etilganligi;
- o'rganilayotgan voqelikni rivojlanish va dinamik holatini ko'rsatish;
- voqelikni real tasvirlashdan iborat.

Axborot texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari o'qitishning shakl, usul va vositalarining zamonaviy elektron axborot-kommunikasiya texnologiyalari – televidenie, video, multimedia vositalarini keng qo'llash hisobiga kengaytirishni talab qilmoqda. Ularni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash o'qitishda korgazmalilikning sam'aradorligini ancha oshiradi, talabalarni o'qiyotgan predmeti haqida to'laroq va aniqroq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'quv jarayonida bilimlarni ifodalab berishda pedagogning tushuntirish usullari qatorini kengaytiradi.

Xulosa sifatida shuni ham alohida ta'kidlash joiz, audiovizual vositalardan dars jarayoni va mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalanish har doim ham ko'zlangan samarani beravermasligi mumkin. Ko'p hollarda audiovizual vositalardan o'quv axborotlarini yetkazishda foydalanish uslubiy ahamiyat kasb etmaydi va o'quv jarayoniga hech qanday yangilik bermaydi.

O'quv jarayonining alohida bosqichlarida audiovizual texnologiyalarning turli xil elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.





## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новые аудиовизуальные технологии: Учебное пособие. / Отв. ред. К.Э.Разлогов. – М.: «Едиториал», 2005
2. Мухамадиев А.Ш. Аудиовизуал технологияларнинг таълимни ташкил қилишдаги роли ҳақида. // Ахборот технологиялари ва телекоммуникация тизимларини самарали ривожлантириш истикболлари Республика илмий-техник конференцияси маърузалар тўплами. 4-қисм. – Т., 2014. –230–232-б.
3. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. –116-б.
4. [http://www.genialnee.net/authors/Vissarion\\_Grigorievich\\_Belinsky/](http://www.genialnee.net/authors/Vissarion_Grigorievich_Belinsky/)

